
QO'SHTEPA TUMANIDA BOSH VAZIR QABULXONASI FAOLIYAT BOSHLADI.
**QO'SHTEPA TUMANIDA BOSH VAZIR QABULXONASI FAOLIYAT
BOSHLADI.**

Tuman tadbirkorlari duch kelayotgan har qanday muammoni joyida, zarurat tug'ilganda, viloyat yoki respublika miqyosida hal etishni yo'lga qo'yish, investorlar ilgari surayotgan loyixalar ijrosini ta'minlash maqsadida barcha joylardagi kabi tumanimizda ham Respublika Bosh vazirining qabulxonasi faoliyatini boshladi. Qabulxona Shodlik mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan tuman **"Yo'llardan foydalanish"** unitar korxonasi binosida tashkil etildi. Tashrif buyuruvchilar uchun barcha sharoitlar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **"Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"** 2019 yil 14 maydagi PF-5718-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining **"Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish"** qabulxonalari tuzilmalari tasdiqanganligi munosabati bilan Qo'shtepa tumanidagi O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining **"Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish"** qabulxonasining mudiri lavozimiga **Usmonov Alisher G'anievich** va etakchi mutaxassisi lavozimiga **Umarov Akbarjon Adxamjonovichlar** Vazirlar Maxkamasining 2019 yil 20 iyuldagi 615-Farmoyishi bilan vazifasini bajaruvchi etib tayinlandilar.



Usmonov Alisher G'anievich Qo'shtepa tumanidagi O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish qabulxonasi mudiri vazifasini bajaruvchisi



Umarov Akbarjon Adxamjonovich Qo'shtepa tumanidagi O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish qabulxonasi etakchi mutaxassisi vazifasini bajaruvchisi

2019-07-24 09:57:25